

SALOM YOZ! SALOM JATILO!

www.tongyulduzi.uz

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!



Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

2013-yil 3-iyun
N:22 (66927)



BILIMDONLAR SARALANDI




Talabalik muborak, Abbosxon!

Kuni kecha poytaxtimizda mamlakatimiz akademik litseylari, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablari o'quvchilari o'tasida umumta'lim fanlari bo'yicha olimpiadaning yakuniy bosqichi bo'lib o'tdi. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi, Xalq ta'limi vazirligi, Davlat test markazi bilan hamkorlikda amalga oshirilgan fan olimpiadasi iqtidorli o'quvchilarni aniqlash, qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida o'tkazilayotgan muhim tadbirlardan biridir.

Davomi 2-betda

«Kim ko'p kitob o'qiydi?» tanloviiga marhamat!

3-bet



BOLAJONLAR BAYRAMI

Mana, bir necha kundirki, yurtimizda bolajonlar - shirintoylar bayrami keng tantana qilinmoqda.
1-iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni munosabati bilan Xalq ta'limi vazirligi buyrug'iiga asosan 28-may - 3-iyun kunlari «Har bir bolaga mehr, e'tibor» haftaligi o'tkazildi. 1 - 10-iyun kunlariga mo'ljallangan «Biz barkamol avlodmiz!» o'nkunligi tadbirlari esa qizg'in davom etmoqda.

Davomi 2-betda

BILIMDONLAR SARALANDI



Qoraqlapog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri miqyosida o'tkazilgan bellashuvlarda 1-, 2-, 3-o'rnlarni egallagan 385 nafar o'g'il-qiz o'z bilimlarini sinovdan o'tkazdi. Olimpiada yakuniga ko'ra jami 17 ta fandan 39 nafar g'olib o'quvchi aniqlandi. Ularning ikki nafari umumiy o'rtta lim maktablar, olti nafari maxsus maktab-internat hamda 31 nafari o'rtta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini o'quvchilar bo'ldi.

18 ta o'rinni o'quvchilar tomonidan yetarli ball to'planmagani bois, bo'sh qoldi.

Bilimlar saralanganda, jamoalar hisobida Toshkent shahri 10 ta sovrinli o'rinni bilan birinchisi, Navoiy va Namangan viloyatlari 5 ta o'rinni bilan ikkinchisi, Qoraqlapog'iston Respublikasi hamda Andijon, Buxoro, Samarcand viloyatlari vakkilari 3 ta sovrinli o'rinni bilan uchinchi o'rinni egallashdi.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga muvoofiqliq o'lib o'quvchilar olyi o'quv yurtlariga test sinovlarisiz hamda qo'shimcha imtihonlarsiz kirish imtiyoziga ega bo'lishdi.

G'oliblik muborak, zukko o'g'il-qizlar!

- Olimpiadaning yakuniy bosqichi ikki turdan iborat bo'ldi, - deydi biologiya fanidan umumiy hisobda 93,25 ball to'plab, g'oliblik shohsupasining eng yuqorisidan o'rinni olgan Toshkent tibbiyot akademiyasi qoshidagi akademik litsey o'quvchisi Abbosxon ABRORXONOV.

- Birinchi turda yozma ish yozib, unda 25 ball to'pladim va bu meni qoniqtirmadi. Shuning uchun men ikkinchi turdan, ya'ni testdan yanada yuqori ball to'plashim shart edi. Ustozlarim bergan bor bilim va

salohiyatimni ishga solib, 40 ta savoldan 39 tasiga to'g'ri javob berdim va bu turda 68,25 ball to'pladim. Jami 93,25 ball to'plab, birinchi o'ringa sazovor bo'ldim.

Bu yutuqlarim uchun avvalo, ota-onam, ustozlarim - Dilbar opa Boboxonova, Baxtiyor aka Navro'zovdan behad minnadtorman.

O'zim xohlagan Toshkent tibbiyot akademiyasiga test sinovlarisiz hamda qo'shimcha imtihonlarsiz kirish imtiyozini qo'lga kiritganidan baxtiyorman.

Tirishqoq, izlanuvchan Abbosxonidan siz ham ibrat oling, havas qiling va undan-da bilimdon bo'lishga erishing.

Feruza SOYIBJON qizi

IJODKORLAR BELLASHUVI

Namangan shahar «Barkamol avlod» bolalar markazida «Yilning eng yaxshi iqtidorli ijodkor yosh ixtirochisi» respublika ko'rrik-tanloving shahar bosqichi musobaqalari bo'lib o'tdi.

- O'quvchi yoshlar qobiliyatini yanada rivojlantirish, bo'sh vaqtinlarini mazmunli tashkil etishni ta'minlash, iqtidorigini munosib baholash, ularni kasbga yo'naltirish maqsadida tashkil etilgan mazkur tanlov ko'ngildagidek o'tdi, - deydi Namangan shahar «Barkamol avlod» bolalar markazi direktorining o'quv ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha o'rincbosari Shoir Berdimurodova. - Unda 12 ta maktab va BABMlariidan 51 nafar o'quvchilar ijodiy ishlari ko'rgazmasini namoyish etishdi. Tanlov natijalariga ko'ra «Yosh konstruktur va ixtirochi» yo'nalihsida 60-maktab o'quvchisi Kamoliddin Sobirjonov, «Yosh arxitektor» yo'nalihsida 15-maktab o'quvchisi Jahongir Tursunboyev, «Yosh musavvir» yo'nalihsida BABM to'garagi a'zosi Nosirjon Nuriddinov, 58-maktab o'quvchisi Sevara Abdullayeva, «Liboslar dizayni» yo'nalihsida 13-maktab o'quvchisi O'g'ilxon Najmuddinov, «To'qish» yo'nalihsida 34-maktab o'quvchisi Manzura Tursunboyeva, «Duradgorlik» yo'nalihsida 23-maktab o'quvchisi Anasxon Olimjonov va BABMning to'garak a'zosi Mo'minjon Obidjonov faxli 1-o'rinni egallashdi. Ularga tashkilotchilarning «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alarini topshirildi. Hozirda g'oliblар tanloving viloyat bosqichiga qizg'in hozirlik ko'rishayotir.

Kamola NOSIROVA

Tadbirlar tadbirlarga ulanar



BOLAJONLAR BAYRAMI

Haftalikning dastlabki kuni «Sen yolg'iz emassan» respublika jamoatchilik bolalar jamg'armasi tomonidan Xalqta limi vazirligi, Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, YUNISEF hamda YUNESKOning O'zbekistondagi vakolatxonalarini hamkorligida «O'z kelajagimizni hamjihatlikda yaratamiz» mavzusida VI respublika bolalar forumi tashkil etildi.

Haftalik doirasida viloyat, shahar va tumanlardagi madaniyat va istirohat bog'larini shirintoylar ixtiyorida bo'ldi. Poytaxtimizdag'i 21-, 22-, 23-«Mehribonlik uy»lari tarbiyalanuvchilari uchun Bo'stonliq tumaniga dala sayli uyushitirildi. Ayni kunlarda ham bolajonlar ishtirokida tadbirlar, tomoshalar, konsert dasturlari, festivallar uyushtirilayapti.

«Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasi tomonidan ham ota-ona mehridan bebahra bolalar qalbiga quvondash maqsadida ko'p

lab tadbirlar o'tkazilyapti. Mazkr jamg'arma, shuningdek, «Sen yolg'iz emassan» bolalar jamoatchilik jamg'armasi, qator vazirlar hamkorligida «Toshkent-Lend» bolalar istirohat bog'ida «Mehribonlik uy»lari tarbiyalanuvchilari uchun xayriya tadbiri uyushtirildi. O'zbekiston Badiyi Akademiyasining Ko'rgazmalar zalida farzandlarimizni milliy qadriyatlar ruhiha kamol



toptirish, ularga o'z iqtidorlarini namoyon etish imkonini berish maqsadida, «Yer kurrasida tinchlik!» shiori ostida rasmlar ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Bu kabi ezzulikka yo'g'rilgan sa'y-harakatlar ertangi kunimiz egalari bo'lmish yosh avlod qalbiga shodlik, quvondash ulashishga qaratilgan. Zero, bola kulta, olam kuladi. Uning shodligi bilan dillar nurafshon.



ERTAKLAR YAXSHILIKKA YETAKLAR

Toshkent shahringin Olmazor tumanida joylashgan 106-zaif eshituvchilar maxsus maktab-internati tarbiyalanuvchilari ham bu quvnoq bayramni ajoyib tarzda nishonlashdi. Bayramga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirning «Ertaklar - yaxshilikka yetaklar» deb nomlanishi zamirida ezuq maqsad - o'quvchilarni kitobxonlikka jalb qilish yotadi. Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlari ilmiy-metodik markazi, Respublika Hunarmandlar uyushmasi hamkorligida o'tkazilgan xayriya tadbirida mazkur markaz direktori o'rincbosari O'tkir Tohirovo so'z olib, bolajonlarni ayyom bilan qizg'in muborakbos etdi. Shuningdek, internat rahbariyati va tarbiyachilariga minnatdorchilik bildirib, zaif eshituvchi bolalarni tarbiyalashdek xayrli, mashaqqatli ishlarda muvaffaqiyatlar tiladi.

Tadbirning asosiy tashkilotchisi «Jayhun» oq'g'irchoq teatri badiiy rahbari qo'g'irchoqsoz,

qo'g'irchoqboz usta-hunarmand Mansur Quryazov tayyorlab kelgan qiziqarli tomoshalar, ertaklar, qo'g'irchoqlar «ijrosi»dagi kuy va qo'shiqlar bolajonlarni davraga chorladи. Avvaliga biroz uyalib, tortinib turgan kichkintoylar ham raqsiga tushayotgan tengdoshlariga qo'shilib ketganlarini sezmay qolishdi. Xullas, o'ynamagan, quvnamagan, kuylamagan bokayning o'zi qolmadи. Mansur akaning kichkintoylarga ularshagan qo'g'irchoqlari, shuningdek, Respublika Hunarmandlar uyushmasi tomonidan taqdim etilgan sovg'alar ularning quvondashga qo'shdи.

Internat qoshidagi «Guldasta» raqs dastasi qatnashchilarining chiqishlari, «Durdon» guruhi xonandasida Iroda Qurbonova ijrosidagi qo'shiqlar, Saida Avezovaning raqsllari barchaga bir olam zavq ulashdi.

Tadbir so'ngida internat direktori Muhtabar Alimtayeva so'zga chiqib, bolajonlarning o'ksik qalblarini biroz bo'lsa-da ko'tarishga intilgan tashkilotchilarga minnatdorchilik bildirdi.

O'z muxbirimiz.

Suratlarda: bayramdan lavhalar

Aziz o'quvchilar, kitobxon-u kitob o'qishdan ko'ra bo'sh vaqtini kompyuter o'ynilariga sarflashni ma'qul ko'radian sho'x, o'yinlar qolajonlar! Mana, yozgi ta'tilni ham boshlab yubordingiz. Ta'til kunlaringizni maroqli, mazmunli o'tkazishingizga biroz bo'lsa-da hissa qo'shish maqsadida barchangizni an'anaviy kitobxonlik tanloviga taklif etamiz.

mizni boyitadi, so'z boyligimizni oshirib, xotiramizni mustahkamlaydi.

Qalbingizdag'i dur-u javohirlar manbai – kitobga bo'lgan mehrni yanada oshirish maqsadida «Kamalak» respublika bolalar tashkiloti hamda «Tong yulduzi» gazetasi hamkorligida an'anaviy

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» tanlovini e'lon qilamiz.

Tanlov shartlari quyidagicha: ishtirokchining surati, o'qigan badiiy kitoblari ro'yxat, maktabdag'i eng yaxshi kitobxon o'quvchi ekanligini tasdiqlovchi maktab direktori va sinf rahbarining tavsifnomasi «Tong yulduzi»

«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?» TANLOVIGA MARHAMAT!

Bu taklifimiz bilan sizga, yozni saqat kitob o'qish bilan o'tkazing, degan fikri uqtirishdan yiroqmiz. Lekin har narsaning me'yori bo'lganidek, har bir kuningizni to'g'ri taqsimlab olsangiz, ham ma'naviy, ham madaniy hordiq olishga ulgurasiz. O'z vaqtida dam oling, tabiat qo'yniga chiqing, anhorlarda cho'milib chiniqing, kompyuter o'ynilarini o'ynang. Lekin kitob mutolaasiga ham, albatta, fursat toping.

Zero, kitob qalbimizni, ong-u shurrimizni nurafshon qiladi, ma'naviyati-



Adabiyot – sehrli olam. Bu olamga kirgan inson borki, hech qachon uning sehridan bebahra qolishni istamaydi. Uning sirli tilsimlari kishini doimo o'ziga jalb etaveradi. Qalam ahli bu hissiyotlarni goh nasr, goh nazmga solib, o'quvchi qalbiga yetkazishga intiladi. Kitob – xazina, bilim – boylik ekanligini chuqur anglagan yosh ijodkorlar ustozlar etagidan mahkam turishga intilishiadi.

SURXON NING YOSH IJODKORLARI

Yurtboshimiz «Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor» risolasida «Iste'dod, iste'dod va yana bir bor iste'dod sohiblarini topish, tarbiyalash va ularning mehnatini munosib qadrash eng asosiy vazifamizga aylanishi zarur», deya ta'kidlaganlar. Darha-qiqat, mamlakatimizda iqtidorli yoshlar bee'tibor qolmaydi, ularning iste'dodlarini to'la namoyon etishi uchun yetar sharoilalar yaratilgan. Jumladan, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Surxondaryo viloyati bo'limi qoshidagi «Surxon», «Jayhun» hamda Qumqo'rg'on tumanida faoliyat yuriitib kelayotgan «Ilhom» kabi yosh ijodkorlar klublarida o'z mahoratlarini oshirib borayotgan yosh ijodkorlar talaygina. Ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Surxonning yosh ijodkorlari» nomli kitob chop etildi.

Kuni kecha Termiz davlat uni-

versitetida o'tkazilgan kitob taqdimoti va viloyat hokimi Normo'min Choriyev yoshlarni ushbu haya-jonli kun bilan qutlab, jumladan shunday dedi:

– Yoshlarimiz yo'lini Istiqlol quyoshi yorita yo'g'ani kelajagimizning yanada nurafshon bo'lishidan dalolat beradi. Ta'birk joiz bo'lsa, bugun Surxon adabiyoti mavjlanm o q d a . Vohamiz yosh s h o i r - u yozuvchilari yangi bir to'lqin bo'lib, adabiyot olamiga intilib, talpinib kelmoqda.

Bu iliq fikrlardan ilhomlangan yosh ijodkorlar go'zal she'rlar o'qidilar. Ularning qalbini to'lg'inalib, mavjlanib she'r o'qish baxti hech qachon tark etmasin.

Manzura ASROROVA, Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 12-umumta'lim maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



Qo'qon tasviriy va amaliy san'at kolleji qoshidagi qo'g'irchoq teatri a'zolari yaqinda Farg'ona viloyat bolalar suyak-sil kasalliklari sanatoriysida bo'lib, u yerda davolanayotgan bolajonlarga ajoyib tomosha ko'rashishdi. O'zbek xalq ertagi asosida sahnashertilgan «Zumrad va Qimmat» asarini namoyish etib, o'ksik ko'ngillarni ko'-


tarishdi. O'z navbatida o'quvchilar ham ona Vatan, Istiqlol, tinchlik, baxtli bolalikni madh etuvchi qo'shiqlar kuylab, chiroliy raqslar ijro etishdi. San'atsevar aka-opalari tashrifi bemor bolalarga quvonch bag'ishladi.

Muhammadjon MAHMUDOV,
Farg'ona viloyati

DONISHMAND DAN SO'RADILAR:

«Yetti xazinaga teng boyligingiz bo'lsa, nima qilardingiz?» Donishmand javob beribdi: «Hammasi yaxshilik yo'lida, odamlarning salomatligi uchun sarf etardim». Odamlar yana so'rashibdi: «Bordi-yu, ularga faqat buyum sotib olishingiz lozim bo'lsa, nima olardingiz?» Donishmand javob beribdi: «Umrot sotib olardim, uni el-yurt xizmatiga bag'ishlardi...»

Qanday ajoyib javob-a?! Aziz tengdoshlar, umrni sotib olishning iloji yo'q ekanligini barchamiz yaxshi bilamiz. Shunday ekan, keling, berilgan umrimizni behuda o'tkazmaylik. Har bir daqiqani unumli sarflab, yurtimizni obod qilaylik. Tabiat in'om etgan boyliklardan unumli foydalanib, uni bundan-da ko'rkan qilib, kelgusi avlodlarga yetkazaylik.



Marhabo BOG'BEKOVA,
Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi 2-maktabning 7-sinf o'quvchisi

Ola-onangiz, ustozlaringiz xatti-harakatlariningizdan, xulq-alvoringizdan qoniqmayotganlarini bot-bot ta'kidlashyapti. Kattalar tanbehidan to'g'ri xulosa chiqarib, yaxshi bola bo'tishga harakat qilasiz-u, ammo qandaydir ichki tuyg'u endi yosh bolani targagandek tergashlarini islamayotganini «uqtirib» turadi. Bu holat nima bilan bog'liq? O'zimizni qiziqitqigan shu kabi savollar bilan X.Z. Kolapov nomli kompyuter texnologiyalari kasb-hunar kolleji ruhshunosi Sayyora o'pa OBILOVAgan murojaat qildik.



- Sayyora o'pa, o'smirlilik qanday davr? Shu haqda tushuncha bersangiz.

- O'smirlilik davriga «og'ir davr», «keskin davr», «o'tish davr» deb ham nisbat berishadi. Bu yoshdagilar ko'pincha jizzaki, qaysar, jahldor bo'lib qolishadi. Ular o'zlarini kattalarde tutib, o'z «men»ini kashf qilishga urinishadi. Bu davrda «Menga nima bo'lyapti?» degan savol ko'pchilikni o'ylantirishi tabii. Bu insonneung 11-15 yoshgacha bo'lgan bolalikdan yoshlikka o'tish davri bo'lib, boshqa davrlardan o'zining keskinroq, murakkabroq kechishi bilan farqlanadi. Ayrimlarda bu davri bir-ikki yil ertaroq yoki kechroq kuzatilishi mumkin. O'smirlilik davrinining murakkabligi ko'plab psixologik, fizioligik va ijtimoiy omillar bilan bog'liq.

- O'smirlarda jismoniy rivojlanish holati qanday kechadi?

- Avvalo, ularda endokrin sistemasi o'zgaradi. O'g'il bolalarda bo'y o'shining tezlashishi, yuz qismining jadal rivojlanishi kuzatiladi. Ovozlar do'rillab, yuzlariga husnbuzlar toshadi. Ayniqa, umurtqa pog'onasi bu davrda yanada tezroq o'sa boshlaydi. Bu paytda ular qommatinini tik tutishlari, ko'proq badan tarbiya bilan shug'ullanishlari kerak bo'ladi. Chunki aksariyat suyak kasalliklari mana shu davrda rivojlanadi va albatta, bolaning kayfiyatiga, ruhiyatiga ta'sir qiladi. O'smir nisbatan musta-

qillikka erishishga harakat qiladi. O'zini himoya qila olishimi isbotlashga, mehnat qilib, o'z ehtiyojlarini mustaqil ravishda qondirishga harakat qiladi. Muammolarini ota-onasiga aytishni istashmaydi.

Ular o'zlaridagi bunday o'zgarishlardan qo'rmasliklari kerak. Bu o'tkinchi davr hisoblanadi. Balog'at yoshiga to'layotgan bolalar ko'proq qiziqarli kitoblar o'qishlari, do'star orttirishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.



Fursatdan foydalanib, o'smirlarga mo'ljallangan psixogeometrik o'yin taviysi qilmochchiman.

Bolajonlar o'zlarini sinab ko'rish maqsadida, quyidagi geometrik shakklardan birini tanlashadi. Bu shakkilar orqali o'smir o'z fe'l-atvori qandayligini bilib olsa bo'ladi.

Uchburchak. Ular harakatchan, kuchli shaxslar. O'z oldilariga maqsadlar qo'yadilar va ularga erishadilar. Eng asosiy jihatni ilg'ab olish ularning xarakterli belgilariadir. Uchburchaklar o'zlarini doimo haq deb hisoblaydilar, o'zlariga ishonadilar. Ular ko'pincha tavakkalchi,

toqatsiz bo'ladilar, ayniqa, qaror qabul qilishda ikkilanadigan kishilarga toqatlari yo'q. Xato qilishsa, juda qiyinchilik bilan tan oladilar, e'tirozlarni qabul qilmaydilar, o'z so'zlarida muqim turib oladilar. Uchburchaklar hammani o'z izmiga solishga harakat qilishadi.

Aylana. Kim bu shaklni tanlagan bo'lsa, u odamlar bilan tezda muloqotga kirishib ketadi. Aylana boshqa shakl va killariga qaraganda, odamlarga yaxshilik tilovchi, ularni birlashituvchi shakldir. Ular sezgirlik bilan o'ksik ko'ngilga taskin berishga shoshilishadi. Odamlarni yaxshi farqlay oladilar. Aylana uchun hokimiyat kimning qo'lida ekanligi muhim emas, unga hamma rozi, tinchlik bo'lsa, bas. Lekin axloq vaadolat borasida qat'iylik va qattiqko'llikni namoyon etadi.

To'rtburchak. To'rtburchakni tanlagan o'smirlarning holati kun aro, hatto kun davomida o'zgarib turadi. Ularning o'zini baholashi deyarli doim past bo'lganligi

uchun «yaxshi» bo'lishga harakat qilishadi. Xatti-harakatlari kutilmaganda shiddatli tus olishi atrofdagilarni sergak tortiradi va o'z navbatida «o'zgaruvchi odam» bilan muloqotga kirishishdan qochishlari mumkin. To'rtburchaklar ulargacha hech kim qilmagan ishni qilishga, hech kim o'ylab ko'rmagan savollarga javob berishga harakat qilishiadi.

Zigzag. Bu shakl ijodkorlik timsolidir. Unga obrazli fikrlash, oldindan his etish (intuitsiya), integrativ (mujassamiy) fikrlash xususiyati xosdir. Ular turli nizolarni hal etishda birovgaga yon bosish bilan emas, balki nizo o'z yechimini topishi mumkin bo'lgan yo'lni izlash bilan hal etadilar. Tabiatan aqlii, tillari burro bo'lishi mumkin. Yangiliklarga o'ch bo'lishadi, shu sababli, ular o'zgarmaydigan qonun-qoidalarni yoqtirishmaydi.

Aziz o'quvchilar, o'smir yoshida ko'proq muammolar yechimiga yo'l topishni istab qolasiz. Agar sizni yoshingiza doir turli savollar qiyinasa, bizga maktub yo'llang. Savollariningizga javob berishga harakat qilamiz.

Suhbatdosh: Ozoda TURSUNBOYEVA

BIZGA XOS FAZILAT

Mening ismmim Abdurasul. Poytaxtimizdagi so'lim mahallalardan birida yashayman. Mahallamiz, ayniqa, shu kunlarda juda obod, ko'rkam bo'lib ketgan. Tut va giloslar g'arq pishgan.

Uyimiz oldida gilos daraxti bor. Onamning odatlari – hosilning oldini qo'nishilarga tarqatadilar. Tunov kuni onam: «Shu gilosni terib bersang, oldini qo'nishilarga tarqatib, ortganini sotsak, uvol bo'lmasedi, yana qishga sharbat va murabbab tayyorlandik», dedilar. Do'stim Komil bilan nonushtadan so'ng gilos terdiq. Qo'nishilarga, nuroniy otaxon-u onaxonlarga tarqatdik. Ular juda xursand bo'lib, minnatdorchilik sifatida shirinliklar bilan siylashdi, uzundan-uzun duolar qilishdi. Bundan o'zimiz ham juda quvondik. Ikki chelagagini onam bozorga olib borib, sotib keldilar. Komil ikkimizga ham terganimiz uchun ozodan pul berdilar.

Pulni nimaga ishlatsak ekan, deya rosa o'yладик. O'ylay-o'ylay, yozgi ta'tilda bekor yurmay, biror sport turiga qat-nashishga ahqdildik.

Ha, aytgandek, ko'chamizdag'i o'rik, olma, olcha kabi mevalar ham pishay deb goldi. O'z xarajatlari uchun o'zi mehnat qilib pul topish o'g'il bolaga xos fazilat, deb o'yayman.

Abdurusalning hikoyasini Nigora ABDUNAZAROVA yozib oldi

SINFIMIZ BOLALARI

Bizga juda ma'qul bo'lgan «O'g'il bola – mard bola» sahifasi orqali sinfimizdagi o'g'il bolalarning ayrim jihatlarini namuna qilib ko'rsatmoqchimiz.

Ular ayrim tengdoshlari kabi nojo'ya so'zlarini so'zlashmaydi. Ustozlarga, qizlarga xush muomalada bo'lishadi. Bir-birimizga «siz» lab murojaat qilganimiz uchun suhbatlarimiz o'zaro hurmat asosida o'tadi.

Buvim aytganlaridek, o'g'il bola og'ir-vazmin bo'lsa, o'ylab so'zlasa, so'zining ustidan chiqsa, hamisha hurmatga sazovor bo'ladi.

Gulnoza HASANOVA,
Samarkand viloyati, Ishtixon tumanidagi
1-szon IDUM o'quvchisi



Namangan shahridagi 2-Davlat ixtisoslashirilgan maktab-internati ingliz tili fani chuqur o'qitiladigan ta'lim maskantalaridan biri sanaladi. Mazkur bilim dargohida har juma «Ingliz tili kuni» deb belgilangan. O'quvchilar shu kuni faqat ingliz tilida so'zlashadilar, qiziqartli ma'lumotlar, yod olgan she'rularini shu tilda ravon bayon etadilar.

TA'TIL OLDI TADBIRI

O'quv yilining so'ngi kunlari 5-7-sinf o'quvchilarini ishtirokida o'tkazilgan «We love English» tadbiriga o'quvchilar, ustozer bilan birlgilikda ota-onalar ham taklif etildi. Ayniqsa, 5-sinf o'quvchilarining chiqishlari barchaga manzur bo'ldi. «Sindrella», «Oltin baliq», «Qizil

namoyish etish bilan isbotladilar. O'quvchilarning ingliz tilida ravon so'zlashlari, aktyorlik mahoratlari barchaga xush kayfiyat ulashdi.

Tadbir so'ngida maktab direktori Baxtiyor Muqimov so'zga chiqib, ingliz tilining ahamiyatini chuqur anglagan

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

Ta'til kunlarida til o'rganish eng sevimli mashg'ulotlaringizdan biriga aylanganidan mammunmiz. Bunda «Ingliz tilini o'rganamiz» nomli sahfamiz sizga ko'makchi bo'layotganini maktublarining mazmunidan bilish mumkin. Kichik tarjimalari-yu ustozerlari yordamida tuzgan testlari, yozgan she'rularini sahfamizga yo'lla-


yotgan tengdoshlarizingiz ham talaygina. Bugun ulardan biri Sir-daryo viloyati, Xovos tumanidagi 7-maktab o'quvchisi Gulgona TOSH-QULOVA ning ingliz tilida yozgan «Maqtanchoq quyon» nomli ertagini e'tiborингизга havola qila-miz. Ertakni o'qib, uka va singillaringizga mazmunini so'zlab bering.



BRAGGART HARE

Far away animals lived friendly in the forest. A lot of hares lived friendly in the too. But there was a braggart hare among them. One day a braggart hare called it's friends and said: «I am not afraid of anybody». He boasted: «My heart is like a lion and my force is like a bear». After that hares were angry with it and appeal to a crow. They asked a crow to punish a hare. A crow agreed with them. A crow standing on a tree, it was on the watch for a hare and punished. A braggart hare asked to forgive and not to do like this. A crow forgived it and then it didn't boast any more. One week passed. One day when a crow walked, it heard a voice of dogs, when the dogs were approaching

the crow, a braggart hare saw it and it tried to distract them. The dogs hunted after them. The hare rescued the crow's life. After leaving the hunters the crow called all of the hares and said. «The hare is not braggart, it is a brave hare». The end.



qalpoqcha» ertaklari sahnada namoyish etildi. O'quvchilar ranglar va mevalar tilidan so'zlab, «o'zlari»ni tanishtirdilar. «If you happy and you know», «Look what I can do», «Oh playmate» qo'shiqlarini o'quvchilar jo'rovoz bo'lib kuyladilar. Sindrella - 5-sinf o'quvchisi Iskandar Tohirova, baliqchi chol - Sardor Ahmedov, Qizil qalpoqcha - Saida'zam Abdurahmonovning ijrolarini yig'ilganlar qarsaklar bilan olqishlashdi. 7-«D» sinf o'quvchilar ham o'zlarining ijodkor va iqtidorli ekanliklarini «Suyunchi», «Shum bola» kinofilmalaridan sahna ko'rinishlari

o'quvchilarning tadbirdagi faol ishtiroki haqida iliq fikrlar bildirdi. Uni tayyorlagan ustozer Nafisa Dadajonova va Marg'uba Boboxonovaga minnatdrochilik bildirildi. Mehmomlar ham anjumandan olgan taassurotlarini hayajon bilan bayon etdilar. Qiziqarli tadbir ingliz tili bayramiga aylanib ketdi.

Bilimdon, zukko o'quvchilar til o'rganishni ta'tilda ham davom ettirish niyatidalar.

Mukarramxon SATTOROVA,
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Farzand - oila quvonchi. Uning sog'lomligi ota-onaning baxti. Lekin bolalar salomatligiga, hayotiga xavf soladigan baxtsiz hodisalar ham sodir bo'lib turishi achinarli holdir.

Bular orasida ko'plab uchraydigani va juda og'ir oqibatlarga olib kelayotgani yo'l-transport hodisalaridir. Bolalar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish shu kunning eng dolzarb masalaridan biridir. Bugungi kunda yurtimizda bunday ko'ngilsizliklarning oldini olish yuzasidan keng ko'lamlı tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, yaqinda Toshkent shahar Xalq ta'limi boshqarmasi tizimidagi umumta'lim maktablari o'quvchilariga yo'l harakati qoidalarini o'qitish samaradorligini oshirish va bolalar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida boshqarma tasarrufidagi umumta'lim maktablari o'quvchilar o'ttasida «Yashil chiroq - 2013» ko'rik-tanlovi o'tkazilib kelmoqda. Yaqinda tanloving tuman bosqichlari o'tkazilib, eng munosib deb topilgan 11 ta guruh «Yosh yo'l nazoratchilar» Mirzo Ulug'bek nomidagi madaniyat va istirohat bog'ida o'tkazilgan shahar bosqichida «Yo'llarda piyodalar



Yo'l qoidasi - umr foydasi

harakati», «Yo'l-transport hodisasida jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish», «Yosh velosiped haydovchilar qoidasi», «Yo'l harakati qoidasi» dan nazariy imtihon, «Tartibga solingan chorraha maketini yasash», «Radio-to'linlar orgali boshqariladigan transportlarning qoidalari harakati» hamda «Yo'l belgilari» kabi turlar bo'yicha o'zaro musobaqalashdilar.

O'tkazilgan ko'rik-tanlovda Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 157-maktabning yosh yo'l nazoratchilar eng yuqori ball to'plab, oliy o'ringa sazovor bo'dilar.

Ular iyul oyida Respublika birinchiligi uchun o'tkaziladigan «Yashil chiroq - 2013» musobakalarida qatmashish huquqini qo'liga kiritdilar.

Poytaxtning Mirobod, Uchtepa, Yakkasaroy, Mirzo Ulug'bek tumanlari yosh yo'l nazoratchilarini birinchi o'rinni egallashdi.

Faxrli ikkinchi o'ringa Yunusobod, Chilonzor, Olmazor, Bektemir tumanlarining yosh yo'l nazoratchilarini sazovor bo'lishdi.

Sergeli, Hamza tumani vakillari faxrli uchinchi o'rinni olishga erishdilar.

G'oliblarga ko'rik-tanloving «Faxriy yorliq» hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

Tohir MULLABOYEV,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist



KITOB

Kattalarga hurmatda,
Kichiklarga izzatda,
Bo'lish ilmi, albatta,
Bu kitobdir, bu kitob!

Ummonlardan dur tergan,
Hayot sabog'in bergen,
«Menga oshno bo'l», degan
Bu kitobdir, bu kitob!

Odob nima – bildirgan,
Elga xizmat qildirgan,
Quvontirgan, kuldirgan
Bu kitobdir, bu kitob.

Dilimizni yayratgan,
Ilm nurin taratgan,
Dilda dunyo yaratgan,
Bu kitobdir, bu kitob!

Nodira LAPASOVA,
Jizzax viloyati, Paxtakor tumanidagi
17-umumta'lum maktabining 8-sinf o'quvchisi

BOLALIK HAM
O'TDI...

Quchog'ingdan ayrilish og'ir,
Vujudimni chulg'aydi titroq.
Ko'zlarimda unsiz xavotir,
Chalinmoqda so'nggi qo'ng'iroyq.

Sinfdoshlar bilan qadrondon,
Kun o'tganin sezmadik mutlaq.
Bolalik ham o'tdi sho'x, shodon,
Chalinmoqda so'nggi qo'ng'iroyq.

Xayr endi, qadrondon maktab,
Ongimizni yoritgan chiroq.
Bizni ulkan ishlarga chorlab,
Chalinmoqda so'nggi qo'ng'iroyq.

Farangiz XOLBO'TAYEVA,
Samarqand viloyati, Paxtachi tumanidagi
21-umumta'lum maktabining 9-sinf o'quvchisi

ORASTA
QIZLAR

Aqllidir, ham dono,
So'zlarida ko'p ma'no,
Laylo, Zebo-yu Ra'no
Bizning orasta qizlar.

Saranjom-u sarishta,
Uddaburon har ishda,
Deysiz misli farishta
Bizning orasta qizlar.

Ko'zlarida hayosi,
Chiroylidir ibosi,
Ufurar qalb ziysi
Bizning orasta qizlar.

Yulduz MO'MINOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari
universiteti qoshidagi 2-akademik
litseyining 2-bosqich o'quvchisi



AFSUS

(Hikoya)



Aka-uka Elbek va Eldor maktabdan qaytgach, oshxonaga kirishdiyu ko'zlar deraza oldida tashqariga chiqish ilinjida tipirchilab uchayotgan chumchug bolasiga tushdi. U juda holdan toygan edi. Deraza oldida patlari

sochilib yotibdi. Aka-uka shovvozlar uni bir zamda tutib olishdi. Elbek qushchani mahkam ushlab turdi. Eldor esa oyog'iga uzun ip bog'lab qo'ydi. Uning oldiga don-dun sepih, kichkina idishda suv ham keltirib qo'yishdi. Sayyora opa ishdan qaytgach, o'g'llariga bu ishlari uchun tanbeh berdi. Bolalar onasidan uzr so'rabb, qushchani tanib olish uchun oyog'idagi bog'ichni yechmasdan uchirib yuborishdi. Shu kuni oqshom chog'i

Sardor yozgi ta'tilni asosan daryo bo'yida o'tkazadi. Bu yerda shaharliliklar ham dam olishadi. Ularning ba'zilari tabiatga ozor yetkazmay hordiq chiqarish, boshqalarini, aksincha, mashinadan tushar-tushmas ko'm-ko'k maysalarini ezib-yanchib, ustiga sholcha tashlashadi, gurkirab o'sib turgan suv tollarning shox-shabbalarini sindirib chayla yasashadi, chiqindilarini daryoga irg'itishadi.

Sardor ana shunaqalmi yomon ko'radi. Kichkinagina jussasiga qarab xo'rsinadi. «Qorinboy» amakilarga kuchi yetmasligi alam qiladi. Lekin ular ketishi bilan «mehmon»lar oyog'i ostida ezilgan giyohlarni silab-siyab turg'azadi, chiqindilarni axlatxonaga olib borib tashlaydi, buloq «ko'zi»ga tibqib ketishgan toshlarini surib qo'yadi.

– Katta bo'lsam, ularning birortasini ham daryomizga yaqin yo'latmayman, – deydi o'rtoq'i Rasulga.

– E, ular sendan so'rabb o'tirisharkanmi, daryo hammaniki.

– Ularmiki emas! Ularmiki bo'lganda, joni achirdi. Ana, qara mashinalarini, hatto yig'ma soyabonlarini ham qanchalik avaylashadi...


– Qo'y-e, nima endi, daryoga, daraxtga achinib yig'lamochimisan? Unday bo'lsa, daryoni uyingga olib ketaqol.

– Nima qilaman uyimga olib ketib. Daryo shu yerdan oqaversin, oqqanda ham top-toza bo'lib, to'lib oqsin. Ana, yana kelishyapti, – xo'rsindi Sardor mashinadan tushib kelayotgan bir necha yigit-qizlarga ishora qilib...

Bolalar kunning tafti ancha qaytgach, sigirlarini soyadan olib, tolga bog'lashdi. Shu payt jarlik tomonidan chiqayotgan tutunni ko'rib qolishdi.

– Dam oluvchilar biror yerga o't qo'yvorishdi, shekilli, – yugurdı Sardor. Rasul unga ergashdi. Ular yetib borishganda, jar qirg'og'idagi keksa tut daraxti, unga chirmashib ko'm-ko'k bo'lib o'sib yotgan maymunjon

butalari ham gurillab yonardi. Manzara dahshatlidi. Shu payt butalar orasidan koptokde olov chiyillab otlib chiqdi, uning ortidan uch-to'rtta tipratikan yugurgilab kelardi. Sardor darhol kiyimini yechib «olov-koptok» ustiga otdi-da, uni tutib oldi. Olovni bir amallab o'chirib qarashsa, ona tipratikan ekan. Sho'rlikning tikanlari kuyib ketibdi. Uning ko'zlaridan milt-milt yosh oqardi. Yordamga yetib kelgan bolalar bilan birlashtirib olovni o'chirishdi. So'ngra, qo'rquvdan qayerga borishni bilmay turgan tipratikanlari tutib olishdi.



– Endi bularni nima qilamiz? Iniyam yonib ketdi, – dedi Rasul.

– Uya olib ketaman, dadam davolaydilar, – dedi Sardor.

– Anavi shaharliliklar tutga benzin sepih yoqishdi, – dedi Akmal.

– Sen qarab turaverdingmi? – jahli chiqdi Sardorning.

– Nima ham qila olardim, ular kap-katta yigitlar bo'lsa...

– Akmal, bu yoqqa yur, – Sardor Akmalga nimadir deb pichirliadi.

Yarim kechada Sardorlarning darvozasi taqilladi. Ravshan aka darvozani ochsa, hudud noziri va yana bir yigit turardi.

– Bevaqt kelganim uchun uzr, o'g'lingiz uydami? – so'rati Nosir aka.

– Hozir uxladi. Tinchlikmi? – hayratlandi Ravshan aka.

– Mana bu yigitlar shaharga qaytishlari kerak edi...

– Dada, kim kelibdi? – Sardor darvozaga yaqinlashdiyu, «tanishlariga» ko'zi tushib, qovog'ini uygancha to'xtab qoldi.

– Sardor, bu akalaringni taniyanmi? – so'radi nozir.

– Taniyan, – istamaygina javob qildi Sardor.

– Ular mashinasining raqamini sen yechib oldingmi?

– Nega o'zlarini tutni yoqishadi?

– Buning uchun ular jazolarini olishdi. Lekin sen ham noto'g'ri qilgansan, bizga xabar berish o'miga...

– Ketolmay qiyalishsin dedim-da ularga kuchim yetmagandan keyin...

– Seni tushunaman, – Sardorning yelkasiga qo'lini qo'ydi mayor.

Shu payt qitirlagan tovushdan hamma ichkariga qaradi, hovlida qorni bint bilan o'ralgan tipratikan, atrofida esa bolalari chopqillab yurardi...

Muhabbat HAMIDOVA

SPORT

Mana, yurlimizda yana bir o'quv yili yakunlanib, o'quvchilar orziqib kulgan yoz fasli ham boshlandi. Quvonartisi, ortda qolgan o'quv yilida ham bilimga chanqoq, intiluvchan yoshlariimiz o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab, barcha fanlardan yugori baho olib, ota-onasi, ustozlari ishonchini ogashadi. Endi soya-salqin, bahavo go'shalarda, so'tim oromgohtlar bag'rida har qancha dam olsalar, yarashadi.



YOZDA MAROQLI HORDIQ

Qolaversa, har yilgidek orom-gohlarga jalb qilinmagan o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishga alohida e'tibor qaratilyapti. Xususan, «Yoz - 2013» sport musobaqlari ana shunday o'quvchilarining ta'tilda miriqib hordiq chiqarishlari, ularning sportga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish maqsadida tashkil etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi, Madaniyat va sport ishlari vazirliklari, Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi va yana bir qator tegishli tashkilotlar hamkorligida

o'tkazilayotgan ushbu an'anaviy sport musobaqlari 20-iyundan 10-avgustga qadar ikki bosqichda o'tkaziladi. Maktab va tuman bosqichidan iborat ushbu musobaqlarning yildan yilga qamrovi kengayib borayotgani bois, bu galgisi yanada qiziqarli va murosasiz tarzda o'tishi kutilmoqda.

Kuni kecha Sirdaryo viloyatida Qoraqpolg'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Xalq ta'limi boshqarmalarining jismoniy tarbiya fani uslubchilari ishtirokida

«Yoz - 2013» sport musobaqlarini ko'n-gildagidek tashkil etishga bag'ishlangan seminar-trening bo'lib o'tdi.

Tadborda so'z olganlar, «Yoz - 2013» musobaqlarini o'tkazish, sport turlari bo'yicha maktablarda to'garaklar faoliyatini

yo'lda qo'yish, jismoniy tarbiya fanidan o'quvchilarining nazariy bilimlarini yanada boyituvchi sport musobaqlarini o'tkazish masalalari atroflichha muhokama qilindi.

- Umumta'l'm maktabalarda o'quvchilarining sport bilan muntazam shug'ullanishlarini ta'minlash orqali ular o'tasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirishga alohida e'tibor qaratilmad. O'quvchilar ishtirokida o'tkazilayotgan mazkur sport musobaqlari ana shu ezgu maqsad yo'lda tashkil etilmoqda, - deydi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi Bolalar sportini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i Norbobo Soatov.

Shuningdek, tadbir davomida Guliston shahridagi 16-maktab va 1-TIP bolalar sporti inshootida «Yoz - 2013» musobaqlarini tashkil etish bo'yicha amaliy ko'rgzmalar ham tashkil etildi.

Sa'dullo TURSINOV



YOSH FUTBOLCHILAR MAYDONDA

Joriy yilning 16-23-may kunlari Samargand shahrida 1997-yilda tug'ilgan o'smirlardan tashkil topgan viloyatlar terma jamoalari o'rtasida «Umid kubogi» musobaqasi tashkil etildi.

Turnir O'zbekiston Futbol federasiyasi tashabbusi bilan o'tkazilib, unda respublikamizning barcha viloyat terma jamoalari to'rt guruhga bo'lingan holda o'zaro bahslashishdi.


Musobaqaning birinchi yarim finalida Farg'ona viloyati terma jamoasiga poytaxt viloyatidan kelgan yosh charm to'p ustalari raqiblik qilishdi. Chorak finalda samaraqandli tengqurlarini penaltilar seriyasida mag'lubiyatga uchratgan farg'onalik

o'smirlar mazkur o'yinda ham raqiblariiga hech qanday imkoniyat qoldirishmadni va yakunda 2:1 hisobida g'alaba qozonishdi.

Ikkinci yarim finalda esa Toshkent shahri va Buxoro viloyati terma jamoalari o'zaro ro'baro' kelib, unda poytaxt vakillari 2:0 hisobida ustun kelishdi.

Finalda Toshkent shahri va Farg'ona viloyati terma jamoalari maydonga tushishdi. Hal qiluvchi urchashuvda Toshkent shahri terma jamoasi 2:0 hisobida g'alaba qozonib, bosh sovrin egasiga aylandi. Farg'ona viloyati terma jamoasiga esa ikkinchi o'rinnasib etdi.

Navro'z NORBOBOYEV



Fransuz bolalari ham dunyodagi barcha millat farzandlari qatori hamisha o'z yurti, millati bilan faxrlanib yashashadi. Fransuzlar farzandlarining jamoada ulg'ayishini muhim hisoblaganliklari bois barcha bolalar maktabgacha ta'l'm muassasasiga qatnashlari majburiy qilib belgilangan. Lekin chorshanba kuni an'anaviy tarzda otonalarning bola tarbiyasi bilan shug'ullanadigan kuni deb e'lon qilingan bo'lib, shu kuni Fransiyada bog'cha va maktablar ishlamaydi. Bola tarbiyasida esa, ayniqsa, otalarning o'rn katta bo'lib, farzandlarini sport seksiyalariga olib borish, dan olish kunlari sayrga olib chiqish va maktab majlislarida ishtirot etishda ilg'or hisoblanishadi. Ta'l'm tizimi esa to'rt bosqichda olib boriladi:

- maktabgacha ta'l'm (6 yoshgacha);
- boshlang'ich ta'l'm (6-11 yoshgacha);
- o'rtta'l'm (11-18 yosh);
- olyi ta'l'm.

Maktabda o'quvchilar bilimi, darslarni o'zlashtirishi 20 ballik sistemada baholanib borilsa, litsey va kollejlarda o'quvchilarining bilim darajasiga qarab o'r'in beriladi. Masalan, bir o'quvchi fizikadan birinchi, matematikadan o'n birinchi, rasm chizishdan ikkinchi o'rinni egallashi mumkin. Ota-onalar esa bolalarning o'qishi uchun barcha sharoitni yaratib beradi. Mabodo bolani jazolash kerak bo'lsa, u eng sevimli mashg'uloti yoki shirinligidan mahrum qilinadi, xolos. Ayrim xorijiy mamlakatlardagi tengdoshlariga nisbatan ushbu millat yoshlaringin haddan ziyod mustaqil ravishda, ota-ona ruxsatsiz ish qilishlari noma'qul hisoblanadi. Fransuzlar kelajak avlodni mehnatkashlik ruhida tarbiyalab, ular ongiga «Yaxshi ishla va hayotdan bahra ol» degan aqidani singdirib borishar ekan. Bo'lajak mutaxassisdan esa birinchi o'rinda jiddiylik talab etilib, fransuz tilida jiddiylik so'zi kasbiyetuklilik so'zi bilan sinonimlik kasb etadi.

Kuzatib borayotganingizday, dunyodagi barcha xalqlar kelajaka yurtni obod qilguvchi komil avlod tarbiyalashni orzu qiladi, ana shu yo'lda harakat qiladi, bir so'z bilan aytganda, farzandi o'zidan-da baxli yashashini istaydi.

QIZLARXON

KUNI

- Qadim-qadim zamonalarda barcha gullar katta va chiroyli bir bog'da yashar ekanlar. Kunlarning birida bog'ga uzoqdan bir gul olib kelishibdi.
- Yangi kelgan «mehmon» shu qadar go'zal ekanki, unga

NILUFAR



golsa, ana dugonalarim – Atirgul, Nargiz, Chinnigul, Lolalar bor. Kelib-kelib men senday ko'rimsiz guldan yordam



Keling, ertak o'simliklardan
bo'lgan nilufar gulini Avstraliyada,
janubi-sharqiy va janubiy Osiyoda,
shuningdek, Kaspiy dengizi qirg'oqlarida
uchratish mumkin.

Bilasizmi?

Dunyodagi eng chiroyli o'simliklaridan biri bo'lgan nilufar gulini Avstraliyada, janubi-sharqiy va janubiy Osiyoda, shuningdek, Kaspiy dengizi qirg'oqlarida uchratish mumkin. Nilufar guli suvda ham, quruqlikda ham o'suvchi o'simlikdir. Ildizi hovuz tubidagi tuproqda bo'lsa, gul va barglari suv ustiga chiqib turadi.

GULCHEHRA

- Xafa bo'limgan-u, bunday bo'lishiga o'zing aybdorsan. Endi gullar seni hech qachon kechirishmasa kerak. Shunday bo'lsa-da, ulardan bog' chetidagi ko'lmakchada yashashning iltimos qilib ko'raman, – debdi Qamishgul achinish bilan.

Gullar Nilufarning borar yeri yo'qligi uchun o'sha ko'lmakchada yashashiga rozilik berishibdi. Shundan buyon u ko'lmakchada yakka-yolg'iz yashar ekan.

Kibriyo XOLMATOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Qamashi tumani

- barcha gul-lar juda-juda havas
- qilishibdi va unga Nilufar deb nom qo'-yishibdi. Qamishgulning yangi gul bilan do'stlashgisi kelar, ammo go'zalligidan mag'rurlanib ketgan Nilufarning u bilan hatto gaplashgisi ham kelmabdi.
- Uning bu harakatlaridan biroz xafa bo'lgan Qamishgul shunday debdi:
- Ha, mayli... Nilufar, men bilan do'stlashishni xohlamasang ham yordamim kerak bo'lib qolsa, tortinmay so'rayver.
- Menga yordam kerak bo'lib

so'raymanmi? – debdi Nilufar.

Kunlar ketidan kunlar o'taveribdi. Bu orada Nilufarning g'alati odatlari ko'zga ko'rina boshlabdi. U Atirgulni Lolaga, Nargizni Chinnigulga yomonlab, dugonalarini bir-biri bilan urishitirib qo'yibdi. Ko'p o'tmay, gullar uni bog'dan quvib solishibdi.

– Qamishgul, gullar meni bog'dan quvishyapti. Boradigan joyim yo'q, iltimos, yordam ber. Axir o'zing, yordam kerak bo'lsa, tortinmay so'rayver, deganding-ku, – deya Qamishgulga yolvoribdi Nilufar.

«KELAJAK VORISLARI» KROSSYORDI

B) Eniga: 1. Yer qazib, asosan, yer ostida yashovchi joni-vor sarguzashtari tasvirlangan multfilm. 4. O'iladagi katta qiz. 6. Go'zallik; chiroy. **Bo'yiga:** 1. Eng yaxshi sovg'a, biliimlar manbai. 2. Bolalarning murabbiyidan kas-hunar o'rganadigan uyushmasi. 3. Oybek qissasi. 5. Badiiy gymnastika anjomi.


O) Zanjir holida: 7. Qizaloqlar o'yinchog'i. 8. Bolalarning yetib yoki tutib olish o'yini. 9. Ovoz chiqaruvchi moslama, asbob.

L) Zanjir holida: 10. Xudojerberdi To'xtaboyevning «Sariq devni minib» asari qahramoni. 11. «O'rigidan danagi shirin» deb e'zozlanadigan avlod.

A) Eniga: 12. Ta'il fasli. 15. Onajonlar qo'shig'i. **Bo'yiga:** 12. Vaqt o'ichovi. 13. Fotimaning singlisi. 15. Katta o'g'il. 16. Maqoldan: ... yoshda emas – boshda.

J) Zanjir holida: 17. Mevazor va gulzor maskan. 18. Bolajonlar jurnali. 19. Eng birinchi darslik. 20. Xalq og'zaki ijdoding bolalar sevadigan janri.

O) Zanjir holida: 21. O'zbek bolalar shoiri, «Orzularim – qo'sh qanotim» she'rlar va



ertaklar to'plami muallifi. 22. Eng aziz insonga berilgan yana bir nom. 23. Eng yugori baho. 24. Hamid Olimjon dostoni nomidan «... bilan Baxtiyor». 25. Qizaloqlar sochiga taqadigan bezak, tasma.

N) Bo'yiga: 26. O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshidagi bolalar katta xori. 27. Go'daklar

tebranadigan moslamasi. **Diagonal bo'yicha:** 27. Chaqaloqlarning azaliy yotog'i.

MUAMMONOMA
Kalit so'zlar: 1. Bolalarga mo'ljallangan ekran san'ati - 7, 18, 5, 16, 19, 4, 5, 7.
2. Daniyalik ertakchi adib - 1, 9, 11, 13, 3, 8, 13, 9.

3. Adabiy-badiiy, bezakli bolalar jurnali - 12, 18, 5, 15, 1, 9.

4. Kichik so'zining ma'nodoshi - 17, 1, 17, 17, 4.
5. Qo'yining bolasasi - 20, 21, 14, 4, 22, 2, 20.
6. Musobaqa, bellashuv - 6, 1, 10, 8.

Endi kalit so'zlar javoblaridagi

harflar asosida shakl atrofidagi raqamlarda yashiringan muammonomani hal eting. Bunda ulardan atoqli shoir Maqsud Shayxzoda qalamiga mansub to'rt misra she'mni bilib olasiz.

Tuzuvchi: Husan ORIPOV

8



Bosh muharrir
Feruza JALILOVA

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq 'Ilmi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy
Kengeshi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga
qrashish bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot
va axborot agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
Bahodir G'ANIYEV,
Svetlana INOMOVA,
Murtazo SULTONOV,
Zoir ISAJONOV,
Sa'dullo TURSINOV
(Bosh muharrir o'rinasosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Zikrilla TESHABOYEV,
Quroqboy ERGASHEV,
Sobitxon TURG'UNOV

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA
Rassom
Feruz MATYOQUBOV
Dizayner
Olovuddin ORIPOV
Musahih
Nargiza ABDULLAYEVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail:
info@tongyulduzi.uz
www.tongyulduzi.uz

Tel: 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»
NMUIU chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 82940
Buyurtma N: J 7272